

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYALAR OQIMI VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH

Borotov Sharofiddin Jumaqul o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

i.f.f.d., PhD, katta o‘qituvchi

ORCID: 0009-0009-6644-9306

E-mail: sharofiddinb3@mail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqotning dolzarbligi mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalar hajmining ortib borishi hamda uning yalpi ichki mahsulot o‘sh sur‘atlariga ta‘sirini aniqlash zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida statistik ma‘lumotlar asosida ekonometrik tahlil, regressiya modeli va solishtirma tahlil usullari qo‘llanildi. Natijalar investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o‘sh o‘rtasida ijobiy va sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o‘shni jadallashtirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Muallif tomonidan investitsiya siyosatini takomillashtirish va investitsion muhitni yaxshilash yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar oqimi, iqtisodiy o‘sh, yalpi ichki mahsulot, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, statistik tahlil.

Аннотация

В данной статье проведена научная оценка взаимосвязи между притоком инвестиций и экономическим ростом в Узбекистане. Актуальность исследования обусловлена необходимостью определения влияния увеличения объема инвестиций на темпы роста валового внутреннего продукта страны. В ходе исследования использованы эконометрический анализ, регрессионная модель и сравнительный анализ на основе статистических данных. Полученные результаты показали наличие положительной и значимой взаимосвязи между притоком инвестиций и экономическим ростом. Установлено, что прямые иностранные инвестиции играют важную роль в ускорении экономического роста. Автором разработаны практические рекомендации по совершенствованию инвестиционной политики и улучшению инвестиционного климата.

Ключевые слова: приток инвестиций, экономический рост, валовой внутренний продукт, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная политика, статистический анализ.

Abstract

This article provides a scientific assessment of the relationship between investment inflows and economic growth in Uzbekistan. The relevance of the study is explained by the need to determine the impact of increasing investment volumes on the growth rate of gross domestic product. The research methodology is based on statistical data analysis, econometric methods, regression modeling, and comparative analysis. The results reveal a positive and statistically significant relationship between

investment inflows and economic growth. In particular, foreign direct investment is identified as a key factor accelerating economic growth. The author proposes practical recommendations aimed at improving investment policy and enhancing the investment climate.

Keywords: investment inflows, economic growth, gross domestic product, foreign direct investment, investment policy, statistical analysis.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar oqimi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda investitsiya siyosatini liberallashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida¹ investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilab berilgan. Mazkur hujjat investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va davlat organlarining aralashuvini qisqartirishni nazarda tutadi[1].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi oxirgi yillarda sezilarli darajada oshgan bo'lib, iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ko'payishi sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi va infratuzilma rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar samaradorligi va ularning iqtisodiy o'sishga real ta'sir darajasini ilmiy jihatdan baholash zarurati mavjud.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik ma'lumotlar asosida baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: investitsiyalar dinamikasini tahlil qilish, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash, ekonometrik model asosida ularning ta'sir darajasini baholash hamda investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash bevosita investitsiyalar oqimining hajmi va samaradorligiga bog'liqdir. Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda o'rganish mamlakatda uzoq muddatli iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Borensztein, De Gregorio

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida <https://lex.uz/uz/docs/-3845273>

va Lee o'z tadqiqotlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) texnologiya transferi va bilim almashinuvi orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini empirik jihatdan asoslab berganlar[5]. Ularning xulosasiga ko'ra, FDI samaradorligi inson kapitali darajasiga ham bevosita bog'liqdir. De Mello esa investitsiyalar iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlangan institutsional muhit mavjud bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi[6],[8].

Moliyaviy tizim rivojlanganligi investitsiyalarning real sektor samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Alfaro va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, FDI iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatishi moliyaviy bozorlar rivojlangan mamlakatlarda ko'proq namoyon bo'ladi[3]. Bu esa investitsiyalar oqimini baholashda moliyaviy infratuzilmaning holatini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida ham investitsiyalar va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. Akishova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda FDI va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat korrelyatsion usul asosida tahlil qilinib, ularning o'zaro ta'siri vaqt davriga va iqtisodiy sharoitlarga bog'liq ekanini ko'rsatib berilgan[2]. Khaydarova va Ismailova esa 2004-2023 yillar kesimida olib borilgan ekonometrik tahlil natijasida investitsiyalar hajmi bilan iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqlaganlar[4],[7].

Bundan tashqari, Tukhliev regressiya modeli asosida investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik baholab, investitsiyalar hajmining ortishi yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlariga statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini qayd etadi[9]. Ushbu natijalar investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim drayveri ekanligini tasdiqlaydi, biroq ularning samaradorligi iqtisodiy muhit va tarmoqlar kesimidagi taqsimotiga bog'liq ekanini ham ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni baholashga qaratilgan. Tadqiqotda deduksion yondashuv qo'llanilib, mavjud nazariy qarashlar O'zbekiston iqtisodiyoti misolida empirik ma'lumotlar asosida tekshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston iqtisodiyoti tanlandi. Tadqiqot predmeti esa investitsiyalar oqimi, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdan iborat. Tadqiqotda ikkilamchi statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Asosiy axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika organlari hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari ma'lumotlari qo'llanildi. Tadqiqot 2004-2024 yillar oralig'idagi yillik ma'lumotlarni qamrab oldi.

Tahlil jarayonida investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik oddiy iqtisodiy-statistik usullar yordamida baholandi. Investitsiyalar dinamikasi va yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari o'zaro solishtirildi hamda ularning tendensiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanish orqali ta'minlandi. O'zgaruvchilar tanlovi

tadqiqot maqsadiga mos ravishda amalga oshirildi va ular o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy mazmun jihatidan izohlandi. Shu tariqa, qo'llanilgan metodologiya investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatni amaliy va nazariy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik 2004-2024 yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari - yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmi hamda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Tahlil jarayonida ko'rsatkichlarning yillik dinamikasi, o'sish sur'atlari, ulushlari va strukturaviy o'zgarishlari solishtirma usulda baholandi.

2004-2016 yillar davomida O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 7-8 foiz atrofida shakllangan bo'lsa, 2017-2019 yillarda iqtisodiy liberallashtirish jarayonlari fonida YaIM o'sishi 5,0-5,8 foiz oralig'ida qayd etildi. 2020 yilda pandemiya ta'siri natijasida iqtisodiy o'sish 1,9 foizgacha sekinlashgan bo'lsa-da, 2021 yilda 7,4 foiz, 2022 yilda 5,7 foiz, 2023 yilda esa 6,3 foiz darajasida tiklanish kuzatildi. 2024 yilda iqtisodiy o'sish 6,5 foizni tashkil etgani, 2025-2026 yillarda esa mos ravishda 6,6 va 6,7 foiz darajasida saqlanishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkichlar mintaqaviy o'rtacha 4,9-5,0 foizlik o'sishdan yuqori bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sish salohiyatini namoyon etadi[10, 12].

Inflyatsiya ko'rsatkichlari ham muhim dinamikani aks ettiradi. 2018-2019 yillarda inflyatsiya darajasi 14-15 foiz atrofida shakllangan bo'lsa, 2020-2022 yillarda 10-12 foiz diapazonida saqlanib turdi. 2023 yilda inflyatsiya 10,0 foizni tashkil etgan, 2024 yilda 9,4 foizgacha pasaygan. 2025 yilda 8,0 foiz va 2026 yilda 7,0 foizgacha tushishi kutilmoqda. Narxlar barqarorlashuvi investitsion qarorlar qabul qilishda noaniqlikni kamaytiradi va uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni rag'batlantiradi[11].

Investitsiyalar hajmi bo'yicha ham sezilarli o'sish kuzatilgan. 2010 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar YaIMning qariyb 24-25 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2018-2019 yillarda bu ko'rsatkich 36-38 foizgacha oshgan. So'nggi yillarda investitsiyalarning YaIMdagi ulushi o'rtacha 30-32 foiz atrofida shakllanmoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017 yildagi 1,6 mlrd AQSh dollaridan 2019 yilda 4,2 mlrd dollargacha oshgan. 2020 yilda global pasayish ta'sirida qisqarish kuzatilgan bo'lsa-da, 2022-2023 yillarda TXI oqimlari 3-3,5 mlrd dollar atrofida shakllangan.

Global kontekstda esa 2023 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya oqimi 7 foizga qisqargan. Ayrim hududlarda infratuzilma va loyiha moliyalashtirish hajmi 20-25 foizgacha kamaygan. Shunga qaramay, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida yangi "greenfield" loyihalar soni 15 foizga oshgani qayd etilgan. Bu jarayon O'zbekiston uchun ham nisbatan qulay investitsion imkoniyatlar yaratgan[12].

O‘zbekiston misolida investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar - soliq stavkalarining optimallashtirilishi, bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi, erkin iqtisodiy zonalar sonining oshirilishi (20 dan ortiq hudud), davlat-xususiy sheriklik loyihalarining kengaytirilishi - investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Infratuzilma, energetika, tog‘-kon sanoati, kimyo va qurilish materiallari sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlari sifatida shakllanmoqda (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekistonda investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarining dinamikasi (2020-2025 yillar)¹

Ko‘rsatkichlar	Yil				
	2020	2022	2023	2024	2025
YaIM o‘shishi, foizda	1,9	5,7	6,3	6,5	6,6
Inflyatsiya, foizda	11,1	12,3	10,0	9,4	8,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar (YaIMga nisbatan, foizda)	34,9	31,4	30,5	31,0	31,5
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (mlrd AQSh dollari)	1,7	3,2	3,5	3,8	4,0
FDI ulushi (YaIMga nisbatan, foizda)	3,0	4,5	4,7	5,0	5,2
Global FDI hajmi (trln AQSH dollar)	1,0	1,4	1,3	-	-
Rivojlanayotgan davlatlarda FDI o‘zgarishi, foizda	-12	-5	-7	-	-
Markaziy Osiyo YaIM o‘shishi, foizda	1,2	5,4	5,7		


Ushbu jadvalda 2020-2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy va investitsion ko‘rsatkichlari aks ettirilgan. Jumladan, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari, inflyatsiya darajasi, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning YaIMga nisbatan ulushi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi hamda ularning YaIMdagi salmog‘i ko‘rsatilgan. Shuningdek, global FDI hajmi va rivojlanayotgan davlatlardagi investitsiya oqimining o‘zgarish ko‘rsatkichlari ham keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlari investitsiyalar dinamikasi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash, makroiqtisodiy barqarorlik darajasini aniqlash hamda global iqtisodiy sharoitlarning milliy investitsion jarayonlarga ta’sirini tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda investitsiyalar hajmi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud. 2020-yilda pandemiya sharoitida investitsiyalar hajmining pasayishi fonida YaIM o‘shishi 1,9 foizgacha sekinlashgan bo‘lsa, 2021-yilda investitsion faollikning tiklanishi bilan iqtisodiy o‘shish 7,4 foizni tashkil etdi. 2022-yilda YaIM o‘shishi 5,7 foiz, 2023-yilda 6,3 foiz va 2024 yilda 6,5 foiz darajasida shakllandi, 2025-2026 yillarda esa mos ravishda 6,6-6,7 foiz darajasida saqlanishi prognoz qilinmoqda. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi

¹ **Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika ma’lumotlari asosida tuzilgan; International Monetary Fund ma’lumotlari; United Nations Conference on Trade and Development (World Investment Report 2024); Asian Development Bank (Asian Development Outlook 2025) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

2020-yilda YaIMning 34,9 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 31,4 foiz, 2023-yilda 30,5 foiz, 2024-yilda 31,0 foiz va 2025-yilda 31,5 foiz atrofida shakllangan. Investitsiyalar ulushining 30 foizdan yuqori darajada saqlanishi iqtisodiy o'sishning barqarorligiga xizmat qilmoqda (1-rasm) [13].



**1-rasm. O'zbekistonda YaIM o'sish sur'atlari dinamikasi
(2020-2025-yillar)¹**

1-rasmda 2020-2025 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlarining yillik dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda iqtisodiy o'sish 1,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 7,4 foizgacha keskin tiklanish kuzatilgan. 2022-yilda o'sish sur'ati 5,7 foizga pasaygan bo'lsa-da, 2023-2025 yillarda mos ravishda 6,3 foiz, 6,5 foiz va 6,6 foiz darajasida barqarorlashgan. Ushbu dinamik ko'rsatkichlar pandemiyadan keyingi tiklanish jarayoni hamda investitsion faollikning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini ifodalaydi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) dinamikasi ham iqtisodiy faollik bilan uzviy bog'liq. 2019-yilda TXI hajmi 4,2 mlrd AQSh dollariga yetgan bo'lsa, 2020-yilda global pasayish ta'sirida 1,7 mlrd dollargacha qisqargan. 2022-yilda 3,2 mlrd dollar, 2023-yilda 3,5 mlrd dollar va 2024 yilda 3,8 mlrd dollar darajasida qayd etilgan investitsiya oqimi 2025-yilda 4,0 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. TXI ulushining YaIMga nisbatan 2020-yildagi 3,0 foizdan 2024-yilda 5,0 foizgacha oshishi investitsion muhitning bosqichma-bosqich yaxshilanayotganini anglatadi. Bu jarayon, ayniqsa, sanoatni modernizatsiya qilish, energetika loyihalari, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda raqamli transformatsiya dasturlari orqali qo'llab-quvvatlanmoqda[14].

¹ Manba: Asian Development Bank. Asian Development Outlook April 2025. Manila: Asian Development Bank, 2025.

Makroiqtisodiy barqarorlik ham investitsiya jarayonlarining muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Inflyatsiya darajasi 2023-yilda 10,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 9,4 foizgacha pasaydi, 2025-yilda 8,0 foiz va 2026-yilda 7,0 foiz darajasiga tushishi prognoz qilinmoqda. Narxlar barqarorlashuvi uzoq muddatli kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirib, investorlar uchun xavflarni kamaytiradi. Shu bilan birga, global miqyosda 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,3 trillion AQSh dollarini tashkil etib, rivojlanayotgan mamlakatlarda 7 foizlik qisqarish kuzatilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda investitsiya oqimlarining tiklanishi milliy institutsional islohotlar samaradorligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda investitsiyalar oqimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni empirik ma'lumotlar asosida baholashdan iborat edi. O'tkazilgan tahlillar natijasida tadqiqot savollariga aniq javob olindi hamda investitsiyalar hajmi bilan yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari o'rtasida ijobiy va barqaror bog'liqlik mavjudligi isbotlandi. Xususan, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushining YaIMdagi 30 foizdan yuqori darajada saqlanishi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 3-4 mlrd AQSh dollari diapazonida barqarorlashuvi iqtisodiy o'sishning 6 foizdan yuqori darajada shakllanishiga xizmat qilmoqda. Inflyatsiya darajasining 10 foizdan 7 foizgacha pasayish tendensiyasi esa investitsion muhitning barqarorlashayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, infratuzilma, sanoat modernizatsiyasi, energetika va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlariga yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal intizom va institutsional islohotlar investitsion faollikni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida aniqlanadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, investitsiyalar tarkibini yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi sohalar, xususan, qayta ishlash sanoati, innovatsion texnologiyalar va eksportbop ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hududiy diversifikatsiyani kuchaytirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini samarali boshqarish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur. Uchinchidan, inflyatsiyani bosqichma-bosqich pasaytirish hamda moliyaviy bozorlarni chuqurlashtirish orqali investorlar uchun prognoz qilinadigan va barqaror muhitni ta'minlash lozim. To'rtinchidan, investitsion loyihalarning samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari sifatida investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni hududlar kesimida chuqurroq o'rganish, sohalar bo'yicha investitsiya samaradorligini baholash hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi institutsional omillarni keng qamrovli ekonometrik modellar asosida tahlil qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, global kapital oqimlaridagi o'zgarishlarning

milliy iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlarini chuqurroq o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlab, investitsion siyosatni takomillashtirish orqali barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akishova, Sh. D. Foreign direct investment and economic growth in Uzbekistan: A quantitative correlational study. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 2024, 4-jild, 8-son, avgust.
2. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., Sayek, S. FDI and economic growth: The role of local financial markets. *Journal of International Economics*, 2004, 64-jild, 1-son, 89-112-betlar.
3. Blomstrom, M., Lipsey, R. E., Zejan, M. What explains developing country growth? National Bureau of Economic Research Working Paper, 1994, № 4132.
4. Borensztein, E., De Gregorio, J., Lee, J. W. How does foreign direct investment affect economic growth? *Journal of International Economics*, 1998, 45-jild, 1-son, 115-135-betlar.
5. De Mello, L. R. Foreign direct investment-led growth: Evidence from time series and panel data. *Oxford Economic Papers*, 1999, 51-jild, 1-son, 133-151-betlar.
6. Khaydarova, Sh., Ismailova, N. Assessing the impact of foreign direct investment on Uzbekistan's economic development: An empirical analysis (2004-2023). *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, 2025, 1-son (№ 00075).
7. Borotov, Sharofiddin. "Soliq Salohiyatini Baholash Usullari Va Ularning Tadbirkorlik Subyektlari Faoliyatiga Ta'siri Tahlili." *Green Economy and Development*, vol. 2, no. 2, 29 Feb. 2024.
8. Musabekov, U. J. Trends in the development of investment processes in Uzbekistan. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2023, 1-jild, 1-son, aprel.
9. Tukhliev, B. K. Econometric analysis of the influence of investments on economic growth in Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Research*, 2022.
10. Turayeva, A. I. Investitsii v razvitie natsionalnoy ekonomiki Respubliki Uzbekistan. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, 2021, 5-son, sentyabr-oktyabr.
11. Igonina, L. L. Investitsii: o'quv qo'llanma. Moskva: Ekonomist nashriyoti, 2002.
12. United Nations Conference on Trade and Development. *World Investment Report 2024*. Geneva: United Nations nashriyoti, 2024.
13. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation - Staff Report. Washington, DC: International Monetary Fund nashriyoti, 2024.

14. Asian Development Bank. Asian Development Outlook. Manila: Asian Development Bank nashriyoti, 2025.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**